

Toshkent viloyatida umumiy o'rta ta'lim


2024/2025 o'quv yili boshiga

- I.** Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari
- II.** Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- III.** Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX va XI sinf bitiruvchilari
- IV.** Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz)
- V.** Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar


I. Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari

Toshkent viloyatida 2024/2025 o'quv yili boshida faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni **930 tani** tashkil etgan va 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan **36 taga**, ya'ni **4,0 % ga** oshgan.

Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan nodavlat umum ta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



2024/2025 o'quv yili boshiga viloyatda jami **25 ta** nodavlat umumta'lim tashkilotlari faoliyat yuritgan va 2020/2021 o'quv yiliga nisbatan ularning soni **8,3 barobarga** ko'paygan.

**Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi**
(2024/2025 o'quv yili boshiga, birlik)

	Umumta'lim tashkilotlari soni, jami	shundan: nodavlat umumta'lim tashkilotlari
Toshkent viloyati	930	25
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	15	1
Olmalik	27	2
Angren	43	-
Bekobod	21	1
Ohangaron	11	-
Chirchiq	32	5
Yangiyo'l	16	2
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	51	1
Ohangaron	55	-
Bekobod	64	2
Bo'stonliq	58	1
Bo'ka	57	1
Quyi Chirchiq	53	-
Zangiota	42	1
Yuqori Chirchiq	41	-
Qibray	45	2
Parkent	60	1
Piskent	43	1
O'rta Chirchiq	57	-
Chinoz	47	-
Yangiyo'l	57	-
Toshkent	35	4

2024/2025 o'quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining eng ko'p soni Bekobod (**64 ta**), Parkent (**60 ta**) va Bo'stonliq (**58 ta**) tumanlarida qayd etilgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Yangiyo'l (**16 ta**), Nurafshon (**15 ta**) va Ohangaron (**11 ta**) shaharlarida qayd etilgan.


Nodavlat umumta'lim tashkilotlariga kelsak, ularning ko'p qismi Chirchiq shahri (**5 ta**), Toshkent tumanida (**4 ta**), eng kami esa Oqqo'rg'on, Bo'stonliq, Bo'ka, Zangiotava, Parkent, Piskent tumanlari (har bir hududda **1 tadan**) hamda Nurafshon va Bekobod (**1 ta**) shaharlarida qayd etilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Faoliyat yuritayotgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni

II. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

Toshkent viloyatida 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan 2024/2025 o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar sonida o'sishi kuzatilgan. Ushbu davrda o'quvchilarning umumiy soni **23,3 ming kishiga**, ya'ni **4,5 % ga** ko'paygan.



Ushbu davrda qiz bolalar soni **14,9 ming nafarga**, ya'ni **6,0 % ga**, o'g'il bolalar soni esa **8,4 ming nafarga**, ya'ni **3,1 % ga** oshgan.

O'quvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	O'quvchilar soni, jami	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
		qiz bolalar	o'g'il bolalar	qiz bolalar	o'g'il bolalar
Toshkent viloyati	541,1	263,7	277,4	48,7	51,3
<i>shaharlar:</i>					
Nurafshon	10,0	4,8	5,2	48,0	52,0
Olmalik	29,6	13,7	15,9	46,3	53,7
Angren	32,3	16,1	16,2	49,8	50,2
Bekobod	17,5	8,4	9,1	48,0	52,0
Ohangaron	7,8	3,7	4,1	47,4	52,6
Chirchiq	32,4	15,3	17,1	47,2	52,8
Yangiyo'l	17,4	8,2	9,2	47,1	52,9
<i>tumanlar:</i>					
Oqqo'rg'on	19,7	9,7	10,0	49,2	50,8
Ohangaron	18,5	9,1	9,4	49,2	50,8
Bekobod	30,0	14,6	15,4	48,7	51,3
Bo'stonliq	27,4	13,5	13,9	49,3	50,7

Bo'ka	23,8	11,5	12,3	48,3	51,7
Quyi Chirchiq	21,2	10,3	10,9	48,6	51,4
Zangiota	29,7	14,8	14,9	49,8	50,2
Yuqori Chirchiq	26,2	12,8	13,4	48,9	51,1
Qibray	23,5	11,5	12,0	48,9	51,1
Parkent	34,0	16,7	17,3	49,1	50,9
Piskent	16,7	8,3	8,4	49,7	50,3
O'rta Chirchiq	25,6	12,5	13,1	48,8	51,2
Chinoz	27,2	13,2	14,0	48,5	51,5
Yangiyo'l	35,9	17,7	18,2	49,3	50,7
Toshkent	34,7	17,3	17,4	49,9	50,1

Toshkent viloyatining barcha hududlarida o'g'il bolalar soni qiz bolalar sonidan o'rtacha **2,6 % ga** ortdi. O'quvchilarning eng ko'p qismi Yangiyo'l (**35,9 ming**), Toshkent (**34,7 ming**) va Parkent (**34,7 ming**) tumanlarida qayd etilgan, eng kami esa Piskent tumaniga (**16,7 ming**), Nurafshon (**10,0 ming**) va Ohangaron (**7,8 ming**) shaharlariga to'g'ri kelgan. O'g'il va qiz bolalar o'rtasidagi eng sezilarli tafovut Olmaliq shahrida (o'g'il bolalar – **53,7 %**, qiz bolalar – **46,3 %**), Yangiyo'l shahrida (o'g'il bolalar – **52,9 %**, qiz bolalar – **47,1 %**), Chirchiq shahrida (o'g'il bolalar – **52,8 %**, qiz bolalar – **47,2 %**), Ohangaron shahrida (o'g'il bolalar – **52,6 %**, qiz bolalar – **47,4 %**), Nurafshon va Bekobod shaharlarida (o'g'il bolalar – **52,0 %**, qiz bolalar – **48,0 %**), hamda Bo'ka tumanida (o'g'il bolalar – **51,7 %**, qiz bolalar – **48,3 %**), Chinoz tumanida (o'g'il bolalar – **51,5 %**, qiz bolalar – **48,5 %**) kuzatilgan, qolgan boshqa hududlarda o'g'il va qiz bolalar nisbati bir biriga yaqin foizlarni tashkil qilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'quvchilar soni \(jami\)](#)

[O'quvchilar soni \(qiz bolalar\)](#)


[O'quvchilar soni \(o'g'il bolalar\)](#)

III. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX va XI sinf bitiruvchilari

2024- yilda Toshkent viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining IX sinf bitiruvchilari soni **39,5 ming kishini** tashkil etgan va 2020- yilga nisbatan ularning soni **1,3 ming kishiga**, ya'ni **3,4 % ga** ko'paygan. XI sinf bitiruvchilari soni esa 2020- yilga nisbatan **13,7 ming kishiga**, ya'ni **81,5 % ga** oshgan va **30,5 ming kishini** tashkil etgan.

IX va XI sinf bitiruvchilari soni

(tegishli yil uchun, ming kishi)



IX sinf bitiruvchilari soni XI sinf bitiruvchilariga nisbatan ko'pligi ba'zi o'quvchilar IX sinfni tugatgandan so'ng akademik litsey yoki kasb-hunar maktablarida o'z o'qishlarini davom ettirayotgani anglatadi.

IX va XI sinf bitiruvchilari sonini hududlar kesimida taqsimlanishi

(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	IX sinf bitiruvchilari	XI sinf bitiruvchilari
Toshkent viloyati	39,5	30,5
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	0,7	0,5
Olmalik	2,6	1,9
Angren	1,7	1,4
Bekobod	1,1	0,9
Ohangaron	0,4	0,3
Chirchiq	2,6	2,0
Yangiyo'l	1,3	1,1
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	1,4	1,1
Ohangaron	1,0	0,8
Bekobod	2,5	1,9
Bo'stonliq	2,0	1,6
Bo'ka	1,8	1,5
Quyi Chirchiq	1,6	1,3
Zangiota	1,8	1,3
Yuqori Chirchiq	2,2	1,3
Qibray	1,8	1,5
Parkent	2,6	2,3
Piskent	1,2	1,0
O'rta Chirchiq	1,7	1,3
Chinoz	2,2	1,6
Yangiyo'l	2,7	1,9
Toshkent	2,6	2,0

IX sinf bitiruvchilarining eng ko'p qismi Yangiyo'l (**2,7 ming**), Parkent va Toshkent (**2,6 ming**) tumanlari hamda Olmalik va Chirchiq (**2,6 ming**) shaharlarida, eng kami esa Nurafshon (**0,7 ming**) va Ohangaron (**0,4 ming**) shaharlarida qayd etilgan. XI sinf bitiruvchilari orasida ham Parkent tumani (**2,3 ming**) va Toshkent tumani hamda Chirchiq shahar (**2,0 ming**) yetakchilik qilmoqda, Nurafshon (**0,5 ming**) va Ohangaron (**0,3 ming**) shaharlarida esa bu ko'rsatkich eng past darajada bo'lgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[IX sinf bitiruvchilari](#)

[XI sinf bitiruvchilari](#)

IV. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz)

2024/2025 o'quv yili boshiga Toshkent viloyatining umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) soni **39,7 ming kishini** tashkil etgan va 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan **4,8 ming kishiga**, ya'ni **13,8 %** ga ko'paygan.

O'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Toshkent viloyatida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlaridagi o'qituvchilarning asosiy qismini ayollar tashkil etgan – **74,8 % (29,7 ming kishi)**, erkaklar esa **25,2 % ni (10,0 ming kishi)** tashkil etgan.

O'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	O'qituvchilar soni, jami	ulardan:		umumiy sonidan, % da	
		ayollar	erkaklar	ayollar	erkaklar
Toshkent viloyati	39,7	29,7	10,0	74,8	25,2
<i>shaharlar:</i>					
Nurafshon	0,6	0,5	0,1	83,3	16,7
Olmalik	1,6	1,4	0,2	87,5	12,5
Angren	2,2	1,8	0,4	81,8	18,2
Bekobod	1,3	1,0	0,3	76,9	23,1
Ohangaron	0,5	0,4	0,1	80,0	20,0
Chirchiq	2,0	1,7	0,3	85,0	15,0
Yangiyo'l	0,9	0,7	0,2	77,8	22,2
<i>tumanlar:</i>					
Oqqo'rg'on	1,8	1,2	0,6	66,7	33,3
Ohangaron	1,6	1,2	0,4	75,0	25,0
Bekobod	2,7	1,8	0,9	66,7	33,3
Bo'stonliq	2,2	1,5	0,7	68,2	31,8

Bo'ka	2,3	1,5	0,8	65,2	34,8
Quyi Chirchiq	1,8	1,2	0,6	66,7	33,3
Zangiota	1,9	1,6	0,3	84,2	15,8
Yuqori Chirchiq	1,8	1,4	0,4	77,8	22,2
Qibray	1,8	1,4	0,4	77,8	22,2
Parkent	2,8	2,0	0,8	71,4	28,6
Piskent	1,5	1,2	0,3	80,0	20,0
O'rta Chirchiq	1,9	1,5	0,4	78,9	21,1
Chinoz	2,0	1,4	0,6	70,0	30,0
Yangiyo'l	2,4	1,7	0,7	70,8	29,2
Toshkent	2,1	1,6	0,5	76,2	23,8

Eng yuqori ayol-o'qituvchilar ulushi Olmaliq shaharga to'g'ri kelgan (**87,5 %**), Bo'ka tumanida esa bu ko'rsatkich nisbatan pastroq bo'lgan (**65,2 %**). O'qituvchilarning eng katta qismi Parkent (**2,8 ming kishi**) va Bekobod (**2,7 ming kishi**) tumanlarida qayd etilgan, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Nurafshon (**0,6 ming kishi**) hamda Ohangaron (**0,5 ming kishi**) shaharlariga to'g'ri kelgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'qituvchilar \(o'rindoshlarsiz\) soni](#)

**V. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar
va metama'lumotlar**

Toshkent viloyatida umumiy o'rta ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlaryillik statistik hisobot – **1-umumta'lim shakli** “Umumta'lim muassasasining hisoboti” asosida shakllantiriladi. Ushbu hisobotni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining umumta'lim muassasalari, boshqa vazirlik va idoralarning umumta'lim muassasalari, mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'i nazar litsenziya asosida nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar taqdim etadi.

Umumta'lim muassasasining statistik hisobotida o'quvchilar, bitiruvchilar, o'qituvchilar soni hamda umumiy o'rta ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar aks ettiriladi. Statistik ma'lumotlar hududlar kesimida taqdim etiladi.

O'quvchilar va o'qituvchilar soni, umumta'lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasi kabi asosiy ko'rsatkichlar yangi o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil uchun keltiriladi. Yig'ma ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, ta'lim islohotlarini rejalashtirish, *shuningdek*, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasida va boshqa xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Ta'lim tashkilotlariga qabul qilish – ushbu o'qub yilida o'qishga qabul qilinganlarning sonini ko'rsatadi. Qabul qilingan soniga ikkinchi yil o'qiyotganlar va avval o'qiganlar orasidan qaytib kelganlar qo'shilmaydi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'quvchilariga – umumta'lim muassasalarining boshlang'ich, tayanch, o'rta va o'rta ta'lim bosqichlarda o'qiyotgan shaxslar hamda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarning o'quvchilari kiritiladi.



O'qituvchilar soni – o'quvchilarga ta'lim berish va kasbiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi, o'rta maxsus, oliy yoki maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslar soni.

Ta'lim tashkilotlarini bitirganlar – ushbu ta'lim tashkilotlarida o'quv kursini to'liq tugatgan va umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma) lar olgan shaxslar soni.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO 2011](#)

[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Manzil: 100198, Toshkent v.,
Toshkent yo'li ko'chasi, 90-uy
El. manzil: info@toshvilstat.uz
Tel.: 71-203-45-00 (4600)